



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STATISTIKA QO'MITASI

2025- yil "12" *avgust*

QAROR *13* -son

Toshkent sh.

Statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida respondentlarni to'liq qamrab olish bo'yicha ishlarni tashkil etish reglamentini tasdiqlash haqida

O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 24- fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-75- son qaroriga muvofiq, rasmiy statistika sohasidagi uslubiy hujjatlarni ilg'or xorijiy statistika amaliyotini inobatga olgan holda yanada takomillashtirish maqsadida, Milliy statistika qo'mitasi qaror qiladi:

1. Statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida respondentlarni to'liq qamrab olish bo'yicha ishlarni tashkil etish reglamenti ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin:

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2020- yil 30- apreldagi "Davlat statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to'liq qamrab olinishini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish Reglamentini tasdiqlash to'g'risida" 10- son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2022- yil 22- apreldagi "Davlat statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to'liq qamrab olinishini ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil etish Reglamentini tasdiqlash to'g'risidagi qarorga o'zgartirish kiritish to'g'risida" 12-son qarori.

3. Mazkur qaror tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais

B. Hamrayev